YANGI O‘ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN IJTIMOIY HIMOYA SIYOSATINING STRATEGIK YO‘NASHILARI

Mamatqobilov Tursunmurod Doniyorovich
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti,
siyosiy fanlar nomzodi
Sirojiddinova Dilro‘za Sherzod qizi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan barcha islohotlarning asl maqsadi insonga munosib turmush sharoitlarini vujudga keltirishning ijtimoiy-ma’naviy ahamiyati hamda umuminsoniy qadriyatlar haqida fikr bildiriladi.

Tayanch so‘zlar: Bozor munosabatlari, ijtimoiy himoya, vatanparvarlik, barqarorlik, ma’naviyat, umuminsoniy qadriyatlar, ajdodlar merosi, tarixiy an’analar va hamkorlik masalalari.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasining "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot” yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturiga muvofiq ishbilarmonlar, mulkdorlar bilan bir qatorda o‘qituvchilar, olimlar, madaniyat arboblari g‘arbda ham, sharqda ham gullab - yashnayotgan jamiyatlarning iqtisodiy va siyosiy barqarorligini ta’minlovchi o‘sha o‘rta qatlamni tashkil etadi. Ziyolilar har doim jamiyatning demokratik rivojlanishida siyosiy poydevor bo‘lib kelgan.

Kishilik tarixidan ma’lumki, jamiyat bir holatdan ikkinchi bir holatga qadam qo‘yar ekan, o‘ziga xos siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy muammolar yuzaga qalqib chiqadi, milliy xavfsizlik va jamiyat osoyishtaligiga rahna soluvchi keskinliklar vujudga keladi. Ijtimoiy ziddiyatlar keskinlashgan har qanday mamlakatda turli xil mojarolar va hatto fuqarolar urushi yuz berishi mumkin. Shuning uchun ham o‘tish davrida demokratik yo‘lni tutgan har bir davlatning eng muhim vazifasi jamiyat fuqarolarining xohish - irodasini hisobga olib, odamlarni qurilajak yangi tizim sharoitlariga moslashtirib borishdan iborat bo‘ladi.

Jahon andozalariga mos keladigan davlat qurish, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy sohada tub islohotlarni amalga oshirish, ularni qonun bilan mustahkamlaydigan huquqiy tizimni vujudga keltirish masalalarini o‘zida to‘la aks ettirgan, jamiyatimiz taraqqiyotining besh tamoyili nafaqat o‘tish davrida, balki O‘zbekistonning siyosiy - iqtisodiy rivojlanishi jahon taraqqiyoti tarixida o‘ziga xos “o‘zbek modeli” yaratilganini isbotladi.

Yangi O‘zbekiston davlatining ijtimoiy siyosati esa, tobora shakllanmoqda. Ijtimoiy siyosat doimiy ishlaydigan, o‘zini o‘zi izchillik bilan boyitib borayotgan yaxlit tuzilmaga aylanmoqda. Natijada, bu yangi ijtimoiy siyosatning asosiy belgilari dastlabki qadamlaridayoq ko‘zga tashlanib qoldi va shuni ishonch bilan ayta olamizki, u boshqa davlatlardagi ijtimoiy siyosat nazariyasidagi mavjud fikr va qarashlardan o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Chuqurlashib borayotgan bozor munosabatlari sharoitida ijtimoiy barqarorlik masalalariga alohida e’tibor qaratish kerakligini uqtirar ekan, Prezident Shavkat Mirziyoyev buning ikki jihatini ochib beradi: “Birinchi. Albatta, inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta’minlashni nazarda tutamiz.

Ikkinchi. Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish, sifatli ta’lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog‘lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz” [1:368].

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, zamonaviy bozor sharoitlariga o‘tish davrida hokimiyat tuzilmalari islohotlar mohiyatini chuqur anglagani holda aholining ijtimoiy himoyalanmagan qatlamlarini qo‘llab - quvvatlashga doir choralarni ko‘rishi juda katta ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy siyosat va uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni haqida gapirar ekan, nemis sotsiologi G.Albrext: “Umumiy ma’nodagi ijtimoiy siyosatni o‘zining iqtisodiy ahvoli oqibatida ijtimoiy

osoyishtalik, xalq va davlat taraqqiyotining mustahkamligini ta’minlash maqsadida zarar, ehtiyoj, kamchiliklarga mahkum etilgan ijtimoiy tuzum guruhlarini himoya etish uchun o‘tkaziladigan o‘zgarishlar majmuasi deb tushunish mumkin (bunda davrimizda ko‘proq davlatdagi o‘zgarishlar tushuniladi)” [2:18], – deydi.

O‘zbekistonda 1991 - yilning boshlarida, ya’ni bozor munosabatlariga o‘tishning dastlabki kunlaridanoq, aholining ishsiz qatlamini qo‘shimcha moddiy yordam (kompensatsiya) bilan ta’minlash yo‘lga qo‘yilganini eslaylik. Sekin - asta bozor munosabatlarini o‘zlashtirib, o‘rganib borish asnosida aholining eng nochor qatlamlarini – keksalar, nogironlar, yetimlar, ko‘p bolali oilalar, o‘quvchi yoshlarning davlat tomonidan iqtisodiy muhofazaga olinishining ta’minlanishi mamlakatda huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyati poydevoriga tamal toshi shu yo‘l bilan qo‘yilshini ko‘rsatib bergan edi.

Xalq turmush darajasining izchil va barqaror o‘sishi negizida ko‘p bolali va kam daromadli oilalarni, ishsizlarni, o‘quvchi yoshlarni, yashash sharoiti juda og‘ir kishilarni qo‘llab - quvvatlash yotganligini ta’kidlab, jamitshunos olim Narzulla Jo‘rayev: “Davlatning qudrati uning ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan aholi turmush darajasini oshirishda ko‘rinadi. Zotan, O‘zbekistonda ijtimoiy adolat, ijtimoiy himoya davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Bu O‘zbekistonning siyosiy qudrati va iqtisodiy imkoniyati tobora kengayib borayotganini ko‘rsatadi” [3:232], – deydi.

Shuning bilan birga, aholini aniq ijtimoiy himoyalash mexanizmini ishlab chiqish va uni amalga oshirish borasida qilingan katta ishlar nafaqat tengchilik va boqimandalik kayfiyatini tugatishga qaratildi, balki tinchlik va barqarorlik omili bo‘ldi.

Shunday qilib, ijtimoiy himoya siyosatini to‘ldiruvchi – mulkdorlar sinfining tashkil topishi, investitsiya faoliyatining kengayishi, kichik va o‘rta biznesning qo‘llab - quvvatlanishi, iqtisodiyotning barqarorlashuvi hamda bandlik muammolarini hal etishdagi sa’y - harakatlarning barchasi ijtimoiy siyosatning amaliy mezoniga aylandi.

O‘zbekistonning ijtimoiy siyosati, eng avvalo, aholining asosiy himoyaga muhtoj qatlami – keksalar, nogironlar, yetimlar, ko‘p bolali oilalarning davlat tomonidan huquqiy kafolatlanishiga qaratilgan. Bugun O‘zbekiston rahbariyati o‘tkazayotgan ijtimoiy siyosatning asosiy vazifasi yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Bunga ko‘ra muayyan katta ijtimoiy guruhga tayanmasdan barqaror siyosiy tizim bilan ta’minlanish mumkin emas.

Bu borada tarixchi olim F.Sharipov: “Masalan, yigirmanchi asrimizning 80- yillarida AQSh ijtimoiy hayotida “reyganomika” atamasi bilan yuritilgan ijtimoiy siyosatning tub mohiyati shunda ediki, u muhtoj tabaqa guruhlarni bu ijtimoiy muhtojlikdan ularning o‘zlari ishtirokida olib chiqish yo‘lini izlab topa oldi. Mamlakatning mayda va o‘rta ishlab chiqarishini kengaytirish hamda davlat tomonidan har tomonlama rag‘batlantirish vositasida ham ularni ishsizlik balosidan xalos qilish, ham aholi ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lgan mahsulotlarni tez, ko‘p, sifatli ishlab chiqarishni ta’minlash bilan birga ularni nisbatan adolatli taqsimlash imkoniyati yaratildi” [4:40], – degan fikrni bildirgan edi.

Agar sobiq ittifoqda bunday vazifani “revolyutsion ishchi sinfi” ado etgan bo‘lsa, chinakam demokratik jamiyat qurilishi sharoitida uni faqatgina o‘rta sinf bajarishga qodir bo‘ladi. Davlat hech qachon qashshoqlar bilan kuchli bo‘lmaydi. Balki jamiyat texnologik, texnik, innovasiyaviy, ilmiy va ma’naviy taraqqiyot bilan ta’minlangan ijtimoiy guruhlar orqali kuchli bo‘ladi. Shu bois agar tizim kuchli bo‘lishini xohlasak, yuzaga kelayotgan “o‘rta” sinfni nafaqat o‘stirishimiz, balki uni har taraflama qo‘llab - quvvatlashimiz lozim. Taraqqiyot boshlanib bo‘ldi. Chet ellarda yetuk mutaxassislarni tayyorlash, olimlar malakasini oshirish, ilmiy va madaniy tajriba almashuvlar, xususiy ishbilarmonlik va boshqa ko‘plab omillar O‘zbekiston rahbariyatining qat’iy strategik maqsadlaridan guvohlik beradi. Shu o‘rinda Prezident Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 19-sentabr kuni BMT bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida: “Inson kapitalini rivojlantirish va kreativ yosh avlodni tarbiyalash – O‘zbekiston o‘z oldiga qo‘ygan strategik vazifalardan biridir. Biz hamma uchun ochiq va sifatli ta’limni kambag‘allikka barham berish, xalq farovonligini oshirish va barqaror iqtisodiy o‘sishga erishishning eng samarali omili, deb bilamiz” [5:3], – degan fikrni qayd etdi.

Izchil va tadrijiy faoliyat ko‘rsatadigan siyosiy tizim barqarordir. O‘z maqsadlari, tamoyillari, harakat usullari bilan jamiyatda qaror topgan an’ana va me’yorlarga mos keladigan, aholining asosiy qismi ixtiyoriy ravishda vakolatini tan oladigan hokimiyatgina qonuniy hisoblanadi va o‘z navbatida, siyosiy tizimning barqarorligini kafolatlab beradi. Shu bilan birga siyosiy hokimiyat legitimligi, ijtimoiy guruhlarning iqtisodiy manfaatlari ifodalanadi. Shu bois siyosiy hokimiyat jamiyatning uzoq muddatli iqroridan foydalanishi uchun, birinchidan, jamiyatda barqarorlikni ta’minlashi, ikkinchidan, manfaatlarni, eng avvalo, aholi moddiy farovonligi bilan bog‘laydigan sinf va qatlamlarga suyanmog‘i kerak.

O‘rta sinf to‘g‘risida gapirilganda, muayyan mustaqillikka ega bo‘lgan odamlar rolini aslo kamsitib bo‘lmaydi. Uning moddiy farovonligini tashkil etadigan asos – o‘rta mulkdorlar sinfidir.

Siyosatshunos olim Rustam Jumayevning fikricha, “Bozor iqtisodi birinchi galda davlatni qo‘llab - quvvatlashi lozim. Ayni paytda, davlatning o‘zi ham bozorni, yangi g‘oyalar, texnologiyalar, qimmatli qog‘ozlar, moddiy boyliklar bozorini qo‘llab - quvvatlashi kerak. Mulkdorlar sinfi – bu nafaqat muayyan qo‘zg‘almas mulk, yer, kichik korxona egasi yoki ishlab chiqaruvchini bildiradi. Bu, birinchi galda, o‘z aqliy mulkini ishlab chiqaruvchi va sotuvchi, balki texnologiyalar, “nou – xau”, o‘ziga xos yangi g‘oyalarni ishlab chiqaruvchi mulk egasidir. Bugungi kunda g‘oyalar bozoridagi talab bir - biriga qarama - qarshi jihatlarni boshdan kechirmoqda. Bir tomondan – jamiyat yangi yondashuvlar, dadil ishlanmalar, ijodiy fikrlash natijalariga ehtiyoj sezib turgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan – fan, madaniyat, ta’lim sohalarida shu paytgacha mavjud yoki yaratilayotgan usullarning yaroqsizligi hamon sezilmoqda. Bu qarama - qarshilik haligacha eski mezonlarning mavjudligi bilan izohlanadi, ko‘p hollarda ijodiy izlanishlar natijalarini ommaviy tarzda e’lon qilishning imkoni bo‘lmayotir (moddiy chiqimlar ko‘pligi, qog‘ozning, matbaa qiymatlarining qimmatlashuvi va h.k.)” [6:16-24].

Demokratik o‘zgarishlar jarayonida mana shu eng muhim siyosiy asosda qad ko‘tarayotgan binoning mustahkamligiga putur yetkazadigan bo‘shliq yuzaga kelishiga aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

Biz mavjud ijtimoiy - siyosiy jarayonlarning, islohotlarning izchilligi va jo‘shqinligini aniq tasavvur etmog‘imiz lozim. Gap shundaki, barqarorlikni ta’minlashni yakka odamning yakka maqsadi, deb tushunish mumkin emas. Bunday tushuncha jamiyatning asta - sekin yemirilishiga olib keladi. Barqarorlik – bundan keyingi olg‘a borishlar uchun kuch va imkoniyatlarni bir joyga to‘plash, degani. Iqtisodiy bardoshlilik va siyosiy barqarorlik har bir muayyan inson – mustaqil O‘zbekiston ahlining farovonligi va gullab - yashnashidan iborat asosiy maqsadni ro‘yobga chiqarish vositasidir. Bu maqsadni amalga oshirish, olg‘a qarab borishga aynan o‘rta sinf qodir, aynan o‘rta sinf mazkur siyosiy hokimiyatni qo‘llab - quvvatlaydi va uni ham qo‘llab - quvvatlash lozim.

Siyosatshunoslikda siyosiy hokimiyatning legitimligi uch ko‘rinishda ko‘zga tashlanadi. “Mafkuraviy, tuzilmaviy va shaxsiy darajalar” [7:11]. O‘zbekistondagi hozirgi siyosiy hokimiyat barcha uch ko‘rinishda qonuniylik nuqtayi nazaridan chinakamiga samarador va barqaror hisoblanadi..

Mamlakatimizda 2026-yil uchun hisoblangan minimal iste’mol xarajatlari (kambag‘allik chegarasi) miqdori oyiga bir kishi hisobida 715 ming so‘mni tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkich 2025-yil davomida oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat tovarlari hamda xizmatlar bo‘yicha shakllangan narxlar indeksi asosida alohida indeksatsiya qilinib aniqlangan.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2026-yil 24-fevral kuni yoshlar bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvida quyidagi tashabbuslarni ilgari suridi [8]. Bular:

1. Har payshanba – vazirlik, idora va hokimliklarda “Yoshlar kuni” bo‘ladi.

2. Yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash uchun qo‘shimcha 200 million dollar mablag‘ ajratiladi.

3. O‘zini o‘zi band qilgan yoshlar uchun kredit miqdori 100 milliondan 300 million so‘mgacha oshiriladi.

4. Yosh tadbirkorlar loyihalari uchun kredit ajratish miqdori 10 milliard so‘mgacha ko‘paytiriladi.

5. Innovatsion startap loyihalariga 100 ming dollargacha investitsiya kiritishga ruxsat beriladi.

6. “Kelajak tadbirkori” dasturi doirasida yosh tadbirkorlarga 7 yilga 15 foizli kreditlar ajratiladi.

7. Dastur asosida o‘zini o‘zi band qilgan yoshlarga garovsiz 20 million so‘mgacha, o‘z biznesini boshlayotganlarga 300 million so‘mgacha kredit ajratiladi.

8. Faoliyatini kengaytirmoqchi bo‘lganlarga 2 milliard so‘mgacha, 5 ta bitiruvchini ishga olgan tadbirkorlarga esa 10 milliard so‘mgacha kredit beriladi.

9. “Mening birinchi kasbim” dasturi orqali oliygoh bitiruvchilariga stajirovka uchun oyiga 2 million so‘mgacha stipendiya to‘lanadi.

10. Har bir hududda yoshlarga biznes xizmatlarini ko‘rsatuvchi “Yoshlar biznes inkubatori” ishga tushiriladi.

11. “Yangi avlod tadbirkorlari” dasturida Garvard, Stenford kabi xorijiy oliygohlar hamkorligida 40 ming yosh biznesga o‘qitiladi.

12. Dasturni muvaffaqiyatli tugatgan eng yaxshi 1000 nafar yoshga 3 yilga 200 million so‘mgacha 7 foizli ssuda ajratiladi.

13. “Yosh tadbirkorlar” tanlovidagi eng yaxshi 100 ta loyihani brendga aylantirish uchun 1 milliard so‘mgacha mablag‘ beriladi.

14. Banklar 50 ming yoshga bepul biznes-reja tayyorlab beradi va 20 ming yoshni tadbirkorlikka o‘qitadi.

15. 1-martdan yangi ish boshlayotgan yoshlarning infratuzilmaga ulanish xarajatlari Yoshlar tadbirkorligi jamg‘armasi tomonidan qoplab beriladi.

16. Samarqand shahrida eng yaxshi loyiha egalari ishtirokida Xalqaro inklyuziv yoshlar oromgohi tashkil qilinadi.

17. “O‘sish va rivojlanish” startap loyihasidagi eng yaxshi 40 ta loyihaga 2 milliard so‘m ajratiladi.

18. Texnikumlarda ham startaplar yaratishga ruxsat etilib, ularga 1 milliard so‘mgacha moliyaviy yordam ko‘rsatiladi.

19. Texnikum o‘quvchilari uchun “Work and travel” dasturi orqali xorijda ishlash imkoniyati yaratiladi.

20. ”O‘quv markazlari uyushmasi” tashkil etiladi. Uyushmaga a’zo bo‘lgan o‘quv markazlariga binosini ijaraga bergan tadbirkorlar ijaradan olinadigan daromad va foyda solig‘ini to‘lashdan ozod etiladi.

21. Bunday markazlarning o‘qituvchilarini Yoshlar ishlari agentligi hisobidan AQSh, Buyuk Britaniya, Singapur, Yaponiya kabi ilg‘or ta’lim markazlariga stajirovkaga yuborish yo‘lga qo‘yiladi.

22. “Ko‘mak” loyihasi doirasida biznesini kengaytirmoqchi bo‘lganlarga 300 million so‘mgacha foizsiz ssuda beriladi.

23. Olis hududlardagi o‘quv markazlari uchun ijtimoiy soliq 1 foiz, daromad solig‘i esa 7,5 foizgacha pasaytiriladi.

24. Yoshlar ishlari agentligi xususiy o‘quv markazlari bilan hamkorlikda har yili 20 ming yoshni kelajak kasblariga o‘qitadi.

25. Har bir tumanga 500 million so‘mgacha ssuda ajratib, texnikum va o‘quv markazlarida kasb-hunar laboratoriyasini tashkil etiladi.

26. Yoshlar ishlari agentligi qoshida ”Volontyorlikni qo‘llab-quvvatlash” jamg‘armasi ochilib, unga har yili byudjetdan 62 milliard so‘m ajratiladi.

27. Yoshlarning eng yaxshi volontyorlik loyihalariga 100 million so‘mgacha grant beriladi.

28. Yosh oilalar uchun uy-joy ipoteka kredit stavkasining 14 foizdan oshgan qismi davlat byudjetidan qoplab beriladi.

29. ”Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish” jamg‘armasi orqali iste’dodli yozuvchilarga ijod uchun oyiga 20 million so‘mdan haq to‘lanadi.

30. Maktablardagi eng faol kitobxon o‘quvchilarga 10 million so‘mdan mukofot topshiriladi.

31. Kitob savdosini oyiga 10 ming donadan oshirgan tadbirkorlarga 1 milliard so‘mgacha 7 foizli ssuda beriladi.

32. “Ikkinchi imkon” loyihasi orqali jazoni o‘tab bo‘lgan yoshlar zamonaviy IT-kasblar va xorijiy tillarga bepul o‘qitiladi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasining “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturiga muvofiq bugungi kun (2026-yil aprel) holatiga ko‘ra O‘zbekiston hududida:

- mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori – 1 271 000 so‘m;
- bazaviy hisoblash miqdori – 412 000 so‘m;
- pensiyani hisoblashning bazaviy miqdori – 471 000 so‘m;
- yoshga doir eng kam pensiya – 918 000 so‘m;
- nogironlik pensiyalari, jumladan ish staji to‘liq bo‘lmagan chog‘dagi nogironlik pensiyasining eng kam miqdori – 1 012 000 so‘m;

-mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan nogironlik nafaqasi va bolalikdan nogironligi bo‘lgan shaxslarga beriladigan nafaqa – 1 012 000 so‘m;

- belgilangan yoshga doir eng kam pensiya miqdoridan (918 000 so‘mdan) 1 012 000 so‘mgacha pensiya oluvchilarning yoshga doir pensiyalari – 1 012 000 so‘m;

-zarur ish stajiga ega bo‘lmagan keksa yoshdagi fuqarolarga beriladigan nafaqa – 820 000 so‘m;

-ish staji to‘liq bo‘lmagan chog‘dagi yoshga doir pensiyaning eng kam miqdori qo‘shimcha to‘lovni hisobga olgan holda – 820 000 so‘m.

2026-yil 1-fevraldan boshlab Qonunchilikka ko‘ra, “mahalla yettiligi” xulosasiga asosan Ijtimoiy reyestrdagi I guruh nogironligi bo‘lgan va mehnatga layoqatli a’zosi bo‘lmagan oilalar xonadonlarining devor va tomlarini izolyatsiya qilish, energiya tejamkor deraza va eshik hamda quyosh panellari yoki geliokollektor o‘rnatish ishlari amalga oshiriladi [9].

Xulosa sifatida aytganda, O‘zbekistonda davlat siyosati maqsadlari, uning qadriyatlari, mo‘ljallar tizimining jamiyat tomonidan tan olinishining o‘ziyoq, mafkuraviy jihatdan legitimlikka erishganini ko‘rsatib turibdi. Yangi O‘zbekiston islohotlarining mustahkamlanishi, milliy davlatchilik, respublikada istiqomat qiluvchi xalqlarning qadimiy madaniyati va an’analarining qayta tiklanishi, mo‘tadil milliy siyosat va hokazolar amalga oshirilayotgan siyosatning aholi tomonidan qo‘llab- quvvatlanishini ta’minlamasligi mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun” – T:.O‘zbekiston, 2022 - yil. -B.368.

2. Социальная политика”. -М., 1991. - С. 18.

3. Jo‘rayev N. “Tafakkurdagi evrilish”. -T.: Sharq, 2001- yil. - B. 232.

4. Sharipov F. “Siyosatshunoslik”. -T.: O‘zbekiston, 1996-yil. - B. 40.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2023-yil 20-sentabr.

6. Жумаев Р. “Политическая система Республики Узбекистан: становление и развитие”. -Т.: Фан, 1996. - С. 16-24..

7.Шабиров О.Ф. “Политическая система: структура, типология, устойчивость”. -М.: Луч, 1993. - С. 11.

8. Ijtimoiy axborot (https://t.me/ijtimoiyaxborot) - ijtimoiy-huquqiy kanal

9. https://lex.uz/docs/8038302#8038629.